

Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари



**РЕСПУБЛИКА  
МАЪНАВИЯТ ВА МА҆РИФАТ  
МАРКАЗИ**



**“МА҆РИФАТ”  
ТАРҒИБОТЧИЛАР ЖАМИЯТИ**

**РЕСПУБЛИКА МАЪНАВИЯТ ВА МА҆РИФАТ  
МАРКАЗИ БУХОРО ВИЛОЯТ БЎЛИМИ**

*2022 йил – Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили*

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА МАЪНАВИЙ  
ТАРАҚҚИЁТ АСОСЛАРИНИ  
КУЧАЙТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ  
МАСАЛАЛАРИ**

республика илмий-назарий анжумани материаллари

*2022 йил 2 декабрь*

**Бухоро**

## Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари

---

tarbiya - ta’lim jarayonining ma’rifiy majmuasini ham o‘z ichiga oladi. Ammo, har qanday ilmiy-intellektual jihatdan yetuk ta’lim faqat gumanistik tarbiya bilangina yuksak ma’naviyatga asos bo’lishi mumkin.

Hozirgi davrda inson qadr-qimmati hurmatiga asoslangan e’tiqod, uning huquqlarini e’tirof etadigan fuqaro tarbiyasiz taraqqiyot bo`lishi mumkin emasligi ayon bo`lib bormoqda. Shu jihatdan erkin fuqaro ma’naviyati shakllanishiga qaratilgan g’oyaviy tarbiya-gumanistik e’tiqod va ratsional-tanqidiy dunyoqarashni ham anglatadi. Afsuski, XXI asr g’ayriinsoniy mafkuralar, ayniqsa, ma’naviy tubanlikni ulug’lovchi, insondagi tuban instinktlar (insondagi g’ayriinsoniylik)ni kuchaytirishga qaratilgan intilishlar davri bo‘lmoqdaki, bunday sharoitlarda, avvalo, tarbiya ilmi ham bo`lgan falsafa yoshlar psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli g’oyaviy tahdidlarga qarshi qadriyaviy mo`ljallarni shakllantirish mummolarini yechishga qodir bo‘lmog’i kerak. Mazkur muammolar o‘z vaqtida yechimga ega bo`lmasligi esa, jamiyatda tanazulliy jarayonlarni kuchaytiradi, shuningdek, sekulyarizatsiyalashgan jamiyatlardan farqli ravishda islom faktori kuchli jamiyatlarga doimiy xavf solib turuvchi diniy fundamentalizmning tahdidiga chek qo`yilishi muammosini yanada murakkablashtiradi. Demak, "har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o‘z maqsad va mohiyatiga ko`ra g’oyaviy tarbiyadir.

Demak, erkin hayot, fuqarolik jamiyati - ta’sis yo‘li, qanchalik muhim bo`lmasin odil qonunlarni yaratish bilan emas, balki umumtarbiyasi - Vaqt dialektikasi orqali qaror topadi. Zotan, fuqarolik jamiyati muassasa emas. U, eng avvalo, erkin shaxs, ozod fuqarodir.

### **YOSHLAR ONGIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK OMILLARI**

*Laziz Yarashovich Olimov*

*Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasи dotsenti*

Mafkuraviy immunitet - shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g’oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g’oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi. Immunitet (lot. immunitaқ - ozod bo‘lish, qutilish) tibbiy tushuncha bo‘lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o‘zini turli

## Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари

---

ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi.

Sodda qilib aytganda, immunitet - kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Yuqoridaidan farqli o'laroq insonning umumiyligi immunitet tizimi tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin. Mafkuraviy immunitet tizimining, asosiy va birinchi elementi bu bilim. Ammo, bilimlarning turi ko'p. Buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi tarafdarlari ham muayyan "bilim" larga tayanadilar, albatta. Shunday ekan, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ular, o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari b-n uzviy bog'liq bo'lmos'h-i kerak. Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy elementi ana shunday ilg'or bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik ob'ektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Ammo bilimlar va qadriyatlar tizimi mavjudligining o'zi mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki element mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim elementi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi maqsadlar tizimi b-n bog'liq. Ana shunday aniq maqsadlar tizimi bo'lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat goh oshkora, goh pinhona mafkuraviy tazyiqlarga duchor bo'laveradi.

Bugun dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. U atomlar vahimasidan, omilkorlik bilan singdirilayotgan, tajovuz va agressiyaning yangicha uslublaridan zir titrab turibdi. Insoniyat aqli va qo'li bilan samoda, yerda joylashtirgan ommaviy qirg'in qurollari xavotiri, yon atrofimizda sodir etilayotgan terroristik harakatlar, qudratli davlatlarning mustaqil davlatlarning ichki ishlariga aralashishi, nufuzli xalqaro tashkilotlar qo'li bilan siyosiy, iqtisodiy bosim o'tkazilishi, o'z manfaati yo'lida boshqalarning milliy manfaatlarini toptashga intilish, zo'ravonlik,

## Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари

---

siyosiy bosim o‘tkazishlar odatiy tusga kirib, turli mafkuraviy tajovuzlar uyushtirilmoqda.

Hozirgi kunda mafkura va demokratiya tushunchalari keng jarayon bo‘lib, faylasuflar va ziyorolar turli atamalarda keng talqin qilmoqdalar. Mafkura falsafiy kategoriya sifatida muayyan bir ijtimoiy guruh yoki millatning, partiya va davlatning tub manfaatlarini nazariy jihatdan asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, ma’naviyuma’rifiy qarashlarning butun bir tizimiga aytildi. Demak, o‘zbek xalqining milliy mafkurasi millatimizning tub manfaatlarini nazariy, ilmiy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, huquqiy, siyosiy, ma’naviy, ma’rifiy, diniy qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Har bir insonning mavjudligi uning mafkurasida aks etadi. Lekin mafkurani ko‘rib ham, ushlab ham bo‘lmaydi. Bu degani mafkura quruq tushuncha, mavhum tasavvur emas. Mafkura aniq, doimo sezib turadigan, insonni faoliyatga undaydigan, unga ruhiy-mafkuraviy qudrat bag‘ishlaydigan maqsadlar. Insoniyat uzoq tarixiy taraqqiyot davomida qo‘lga kiritgan barcha yutuqlari, dunyoni va o‘zini anglashi, shaxs aql-zakovati, ogohligi va idroki aynan ana shu mafkura orqali mavjud bo‘ladi. Mafkurasiz bashariyat insoniylik ummonidan sahroga uloqtirib tashlanadi. Mafkurasiz jamiyat ham, davlat ham, odam ham bir qadam ham olg‘a yurolmaydi. Insoniyat o‘z tarixida nimani yo‘qotgan bo‘lsa, bu mafkuraviy jihatdan kambag‘alligi oqibatidir. O‘z tarixida nimaga erishgan bo‘lsa barcha boyliklar, kashfiyotlarning asosi – mafkuradir. Mafkuraning ilohiy qudrati shundaki, ezgu ishlar, olijanob fazilatlar, muqaddas qadriyatlar va go‘zal urf-odatlar tafakkur quroliga aylangandagina, har bir insonning, har bir millatning mustaqkam himoyachisiga aylanadi. Shuning uchun ham mafkura har qanday quroldan qudratli, kuchli. Istiqlol yillarida jamiyat milliy mafkurasini shakllantirishda juda katta beqiyos ishlar amalga oshirildi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, tarixiy an‘analarimiz, muqaddas ziyoratgohlarimiz tiklana boshladи, milliy tilimiz davlat tili sifatida qabul qilinib, rivojlanishining huquqiy va mafkuraviy asoslari yaratildi. Shularning natijasida jamiyatda mafkuraviy yangilanish yuzaga kela boshladи. Ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, dinlararo tolerantlik vujudga keldi.

**G‘oyaviy immunitet** — shaxsning e’tiqodi, ishonchi va manfaatli qarashlariga yot bo‘lgan fikr va tashviqotlarga qarshi tura olishni

## Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари

---

ta'minlovchi ma'naviy zaxirasidir. Hozirgi davrga xos g'oyaviy kurash turli usul va ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Tashviqot samarasini oshirish maqsadida nafaqat zamonaviy texnologiya, balki psixologiya fanining yutuqlaridan ham keng foydalanilmoqda. Lekin har qanday tashviqot va targ'ibot ta'sirchanligi oxir-oqibatda shaxsning ma'naviy yetukligi, g'oyaviy jihatda shakllangani uzviy bog'liqdir. Shaxsning g'oyaviy ta'sirga beriluvchanligi, avvalambor, unda g'oyaviy bo'shliqning mavjudlidan dalolat beradi.

1. Ijtimoiy-siyosiy omillar. Bu omillarning xususiyati jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan belgilanadi. Bu guruh omillarini belgilovchi manbaalarni o'z navbatida, yana ikki toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifaga siyo-siy va iqtisodiy sabablar kiradi va ular ma'naviy jabha shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Masalan, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy jihatdan yangilanish davri madaniy qadriyatlargacha ta'sir etmasdan qolmaydi. Ikkinchisi toifaga esa jamiyatda ijobiy mazmundagi ijtimoiy va madaniy an'analarning mavjudligi va ularni rivojlantirishga alohida e'tibor, amalda ijtimoiy adolat tamoyillarining hukm surishini ta'minlash kabilarni kiritish mumkin. Birinchi toifa omillarni boshqarish ancha mushkul bo'lib, ular ma'naviy qadriyatlar rivojlanishi uchun shart-sharoit sifatida mavjud bo'ladi. Iqtisodiy, siyosiy sohalarda istiqbolli kelajakka ishonch ma'naviy barkamollikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi. Iqtisodiy omillar qadriyatlarni saqlab qolishga salbiy ta'sir ko'rsatgan davrda esa ijtimoiy-madaniy sohani faollashtirish zarur. Bunday faollik an'analarni yanada rivojlantirishda, qadriyatlar va hayot tarzini targ'ib etishda, tarbiyaviy ishlarni kuchaytirishda namoyon bo'ladi.

2. Ijtimoiy-psixologik omillar. Inson bevosita muloqotda bo'ladigan ijtimoiy guruqlar, shaxslararo munosabatlar, shaxs yashayotgan oilaviy muhit, shaxsning rasmiy (tashkilot, muassasa) hamda norasmiy (do'stlar, yaqinlari) tarzda ijro etadigan rollari, oiladagi o'z mavqeい-dan qoniqishi, shaxs yashaydigan oilaning boshqa oilalar, guruh va jamoalar bilan aloqasi kabilar ushbu guruh omillarini tashkil etadi.

3. Psixologik omillar. Shaxs sifatida iqtisodiy, shaxslararo, oilaviy va shu kabi muammolarni mustaqil tarzda hal eta olish, o'z-o'zini anglash va nazorat etishning rivojlanganligi, zo'riqishlarga chidamlilik,

## **Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари**

---

o‘zgaruvchan sharoitga tez moslasha olish va muammoli vaziyatlarda tez yechim topa olish qobiliyati, ichki nizo va ziddiyatlarga moyillikning sustligi, motivatsiya va ehtiyojlar tizimining shakl-langanligi kabi ko‘rsatkichlar inson ma’naviy yetukligi shakllanishini ta’minlovchi psixologik omillardir.

Yot g‘oyalarga qarshi turish, avvalambor, insonning ishonch-e’tiqodi bilan chambarchas bog‘langan. Shuning uchun o‘z g‘oyasiga ishonch tuyg‘usini shakllantirishda yoshlarning hayotga bo‘lgan qarashlari va e’tiqodini mustahkamlash yetakchi o‘ringa chiqadi.

Bunday yondashuv esa shaxs qadriyatlari shakllanishini bilish, qadriyatlar tizimiga xos bo‘lgan ichki mexanizmlar faoliyatini tahlil etish zaruratini qo‘yadi.

Insoniyat ayni milliy hudud doirasida o‘z an’ana va xulq me’yorlarini saqlaydi, ularni rivojlantiradi va keyingi avlodga o‘rgatadi. Xulqning me’oriy jihatlari, an’ana va odatlar muayyan g‘oya asosida birlashadi va turli qadriyatlarda o‘z aksini topadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 22, 2021 г. С 233-237.
2. Olimov L, Avezov O. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. International Journal of Scientific & Technology Research. volume 9, issue 02, february 2020. P 2784-2786.
3. Olimov L.Ya, Maxmudova Z.M. Psychological peculiarities in stressful situations and social psychological features of coping behavior manifestation. "Science and Education" Scientific Journal. February 2022/ Volume 3 Issue 2. www.openscience.uz 1324-1333.
4. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
5. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

**Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари**

---

6. Олимов Л.Я. Социально-психологический подход к исследованию конфликтов. Вестник интегративной психологии (журнал для психологов). 2019 год, Выпуск 19. 379-381 ст.

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИГА  
ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ АСОСИДА ДАРС ЖАРАЁНИНИ  
ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК ИМКОНИЯТЛАРИ**

*Насимова Зарина Исомиддин қизи*

*Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университети  
таянч докторанти*

Бугунги кунда илм-фан, техника ва ишлаб чиқариш соҳаларининг тез суръатларда жадаллик билан ривожланиши таълим тизими ходимларидан таълим тарбия сифатини мазмун жиҳатдан янги босқичга кўтаришни талаб этиб, ҳар бир тизим ходими, айниқса ўқитувчилар зиммасига янада юксак маъсулият ва вазифаларни юклайди.

Таълим тарбия тизимининг бугунги кундаги асосий вазифаси ўқувчиларни Ватанимизни севадиган, ўз билими ва истеъодига суянадиган ҳамда замонавий ахборот коммуникация технологиялардан фойдаланган ҳолда мустақил равишда пухта билим оладиган, Ўзбекистоннинг қудратли давлат бўлишига ўз ҳиссасини қўшадиган, ҳар томонлама баркамол, соғлом қилиб тарбиялашдан иборат. Мазкур вазифалар энг аввало самарали дарслар орқали амалга оширилади.

Тараққиёт ўз шиддати билан ҳаёт тизимга кириб келаётган бир пайтда мураккаб техника ва технологиялар фарзандларимиз онгу-шууридан ҳам мустаҳкам ўрин эгалламоқда. Бундай вазиятда талабага бирор янги билим бериш, уни ўқиш ва изланишга ўргатиш учун ўқитувчидан жуда катта маҳорат талаб қилинмоқда. Табиийки, бу жараён касбини севган ардоқлаган, ўзини ҳурмат қилган ҳар бир педагогни изланишга, янгидан янги педагогик усул ва услублар, технологияларни ўрганишга, кашф қилишга унダメоқда.

И.П.Подласий фикрига кўра, таълим инновационлари қуйидаги ўзгаришларга олиб келади:

- педагогик тизимнинг тамомила ўзгариши;
- ўқув жараёнининг ўзгариши;
- педагогик назариянинг ўзгариши;

# Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари

- ўқитувчи фаолиятининг ўзгариши;
  - ўқувчи (талаба) фаолиятининг янгиланиши;
  - педагогик технологиянинг ўзгариши;
  - таълим мазмунининг янгиланиши;
  - ўқитиш шакл, метод ва воситаларининг ўзгариши;
  - таълим тизими бошқарувнинг ўзгариши;
  - таълим мақсади ва натижаларнинг ўзгариши.<sup>41</sup>

Олий таълим муассасаларида таълим жараёнига инновацияларни татбиқ этиш профессор - ўқитувчиларнинг инновацион фаолиятидан бошланади. Чунки ўқитувчи таълим ва тарбия жараёнининг етакчиси, ташкилотчиси бўлиб унинг инновацион маданияти, ташаббускорлиги, ижодий фаоллиги, инноваторликка бўлган интилиши таълим тизимини ривожлантиришнинг асосий омилларидан бири ҳисобланади. Инновациялар илмий-амалий жиҳатдан асосланган, бирон бир соҳада аниқ мақсадга қаратилган ҳамда амалий татбиқ этишга йўналтирилган юқори самарадорликка эга янгилик ҳисобланади. Педагогик инновация дейилганда самарали натижага эришиш мақсадида таълим тарбия жараёнига янгиликлар, ижодий ўзгаришлар киритиш тушунилади. Педагогик инновациялар таълим амалиётида ҳамда олим ва педагогларнинг ижодий фаолияти натижасида вужудга келади. Инновация ҳар томонлама пухта режалаштирилган, ўқув жараёнига мақсадли киритилаётган янги таълимий амалиёт (янги тартиб, услуг, метод, метадология, технология ва бошқалар) ҳисобланади. Инновациянинг ўзига хос ҳусусияти қуидагилар ҳисобланади:

- инновациялар доимо долзарб муаммонинг янги ечимини ўз ичига олади;
    - улардан фойдаланиш янги сифатли натижаларни олиш имконини беради;
    - инновацияларни татбиқ этиш тизимдаги барча компонентларнинг сифатининг ўзгаришларига олиб келади.

Мухтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг

<sup>41</sup> Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев.- Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 10-13 берлар

**Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари**

---

**МУНДАРИЖА**

<b>Минҳожиддин МИРЗО</b>	<b>СЎЗ БОШИ ЎРНИДА</b>	<b>3</b>	
<b>1-ШЎЙБА: «ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН — МАЪРИФАТЛИ ЖАМИЯТ» КОНЦЕПЦИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА МАЪНАВИЙ- ТАРБИЯНИНГ УЗВИЙЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МАЪНАВИЙ- МАЪРИФИЙ АСОСЛАРИ</b>			
<b>1</b>	<b>Ж.Т.Шермуҳамедова</b>	<b>ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА МАЪНАВИЙ ТАРАҚҚИЁТ АСОСЛАРИНИ КУЧАЙТИРИШДА РАҲБАР КАДРЛАРНИНГ РОЛИ</b>	<b>5</b>
<b>2</b>	<b>Г.Н.Наврӯзова</b>	<b>БАҲОУДДИН МАЪРИФАТГА КАЛОМЛАРИНИНГ ТАРБИЯСИДАГИ АҲАМИЯТИ</b>	<b>11</b>
<b>3</b>	<b>М.Д.Пардаева</b>	<b>ХОЖА АБДУЛХОЛИҚ ФИЖДУВОНИЙ АСОСЛАГАН КАМОЛОТ ЙўЛИ АЛИШЕР НАВОИЙ ТАЛҚИНИДА</b>	<b>14</b>
<b>4</b>	<b>Ҳ.Ю. Саломова</b>	<b>МАЪНАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОС ВА ШИФОКОРЛИК ОДОБИ</b>	<b>18</b>
<b>5</b>	<b>G.S.Yunusova</b>	<b>SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA INSON MOHIYATI TALQINI</b>	<b>22</b>
<b>6</b>	<b>Э.Зоиров</b>	<b>АБДУЛХОЛИҚ ФИЖДУВОНИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИДАГИ АҲАМИЯТИ</b>	<b>26</b>
<b>7</b>	<b>F.N.Xodjayeva</b>	<b>«YANGI O'ZBEKISTON— MA'RIFATLI JAMIyat» KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA MA'NAVIY TARBIYANING UZVIYLIGINI TA'MINLASHNING MA'NAVIY-MARIFIY ASOSLARI AHMAD G'AZZOLIY ASARLARI MISOLIDA</b>	<b>31</b>
<b>8</b>	<b>Л.П.Мухамеджанова</b>	<b>ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ, МАЪРИФАТПАРVARЛАРИНИНГ МАЪНАВИЙ МЕРОСИ ВА УЛАРНИНГ ЖАҲОН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ</b>	<b>33</b>
<b>9</b>	<b>М.Раҳмонова</b>	<b>ФИТРАТНИНГ МАЪРИФАТ ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯГА ОИД ФАОЛИЯТИ</b>	<b>39</b>
<b>10</b>	<b>А.Х. Ҳамроев</b>	<b>МУСУЛМОНЛАР ЭЪТИҚОДИНИ</b>	<b>45</b>

**Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари**

---

		ТУЗАТГАН АЛЛОМА	
11	<i>M.B.Соипова</i>	ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИ ХУСУСИДАГИ ҚАРАШЛАРИ	48
12	<i>H.M.Касимова</i>	ЁШЛАРДА ТИБИЙ МАДАНИЯТНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ МАЪНАВИЙ АСОСЛАРИ	52
13	<i>M.M.Матчонова</i>	ИНСОН МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИ АХЛОҚШУНОС МУТАФАККИРЛАР ТАЛҚИНИДА	56
14	<i>L.P.Мухамеджанова</i>	БУХОРОЛИК МАЪРИФАТПАРВАР САДРИ ЗИЁНИНГ ШАХСИЙ КУТУБХОНАСИ	59
15	<i>C.C.Ҳамроев</i>	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ИЖТИМОЙ ҲИМОЯЛАШНИНГ УСТУВОРЛИГИ	65
16	<i>T.B.Xudoyqulov, J.O'.Ro'ziqulov</i>	YANGI O'ZBEKISTONNI MA'RIFATLI JAMIyatga AYLANTIRAMIZ	69
17	<i>H.P.Махмудова</i>	УЗЛУКСИЗ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ АСОСИЙ ЙўНАЛИШЛАРИ	72
18	<i>S.N.Abdullayeva</i>	AHMAD IBN UMAR IBN MUHAMMAD XIVAQIY AL-XORAZMIYNING MA'NAVIY MEROSI	77
19	<i>N.Pulatova</i>	ON THE CHARACTERISTICS OF HUMAN CHARACTERISTICS	81
20	<i>N.Boltayeva, N.Pulatova</i>	GREAT REPRESENTATIVE OF THE RENAISSANCE ERA	84
21	<i>M.Makhmudova, N.Pulatova</i>	BERUNI'S TORCH OF INTELLIGENCE...	86
22	<i>B.B.O'razov</i>	ANTIK FALSAFADA ERKINLIK G'OYASI TAKOMILI	88
23	<i>Z.R.Sayliyeva</i>	HAZRAT ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA TARBIYA MASALASI	91
24	<i>M.A.Чориева</i>	ПРИМЕНЕНИЕ И КОНЦЕПЦИЯ МУДРОСТИ И ФИЛОСОФИИ В ШАХНАМЕ	95
25	<i>M.Raxmonova</i>	SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY-MA'NAVIY MEROSINING AHAMIYATI	100

**Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари**

---

<b>2- ШЎЬБА: ТАРГИБОТ-ТАШВИҚОТ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ТАЪСИРЧАН, КРЕАТИВ ВА ИННОВАЦИОН УСЛУБЛАРИНИ ҚЎЛЛАШДА МАЪНАВИЯТ ВА МАЪРИФАТ ТАРГИБОТЧИЛАРИНИНГ РОЛИ</b>			
<b>26</b>	<b>X.X.Жабборов</b>	ТАРГИБОТ НАТИЖАДОРЛИГИНИ ТАЪСИРЧАН ВОСИТАЛАР	ТАДБИРЛАРИНИ ОШИРУВЧИ ПСИХОЛОГИК
<b>27</b>	<b>Sh.B.Murtozayev, B.A. Axtamov</b>	BARKAMOL AVLOD TARBIYASI VA FUKAROLIK JAMIYATI	<b>110</b>
<b>28</b>	<b>L.Ya.Olimov</b>	YOSHLAR ONGIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK OMILLARI	<b>112</b>
<b>29</b>	<b>З.И.Насимова</b>	ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИГА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ АСОСИДА ДАРС ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК ИМКОНИЯТЛАРИ	<b>117</b>
<b>30</b>	<b>Н.Э.Азимова</b>	ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИ ВА УНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШАРОИТЛАРДА ТАРБИЯГА ТАЪСИРИ	<b>120</b>
<b>31</b>	<b>У.М.Рўзиев, М.У.Музаффарова</b>	ЎСПИРИНЛАРДА ҚЎРҚУВ, ИЖТИМОЙ ФОБИЯ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲОЛАТЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК БЕЛГИЛАРИ ВА КОРРЕКЦИЯСИ	<b>123</b>
<b>3-ШЎЬБА: ЁШЛАР ҚАЛБИДА БАҒРИКЕНГЛИК, ШУКРОНАЛИК РУҲИНИ ТАРБИЯЛАШДА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ЎРНИ</b>			
<b>32</b>	<b>C.X.Нажимова</b>	ОИЛА-МАҲАЛЛА-ТАЪЛИМ ҲАМКОРЛИГИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛЛАРИ	<b>129</b>
<b>33</b>	<b>Г.Х.Ҳамроева</b>	ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА ЎЗАРО ҲАМКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАН КУЗАТИЛАЁТГАН ИСТИҚБОЛЛИ МАСАЛАЛАР	<b>131</b>
<b>34</b>	<b>Н.Р.Мирсағурова</b>	ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ТАРБИЯСИДА ОЛИЙ ТИББИЙ ТАЪЛИМНИ ВА МОДЕРНИЗАЦИЯ АҲАМИЯТИ ҚИЛИШНИНГ	<b>135</b>

**Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари**

---

<b>35</b>	<b>З.Б.Набиева</b>	МАМЛАКАТИМИЗДА ТАЪЛИМ СОҲАСИНИ ЗАМОН ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ МАЪНАВИЙ АСОСЛАРИ	<b>139</b>
<b>36</b>	<b>Н.Х. Алимова</b>	ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ТАРБИЯСИДА УЧЯҚДИЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	<b>143</b>
<b>37</b>	<b>Д.С.Сайдуллаева</b>	ТИББИЙ ЁРДАМ ЗАМОНАВИЙ ТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИНСОН САЛОМАТЛИГИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШДАГИ ЎРНИ	<b>147</b>
<b>38</b>	<b>Z.S.Elov, Yu.R.Barnoeva</b>	VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI	<b>151</b>
<b>39</b>	<b>Г.П.Акбарова, Н.О.Адилова</b>	ЁШЛАР ТАРБИЯСИ УЗВИЙЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА АСОСИЙ МЕТОДОЛОГИК ВА КОНЦЕПТУАЛ ЁНДАШУВЛАР	<b>155</b>
<b>40</b>	<b>Х.М.Халтурсунова</b>	МАМЛАКАТИМИЗДА БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИДА МЕЪЁРИЙ ҲУЖЖАТЛАР ИШЛАБ ЧИҚИЛИШИ ВА АМАЛГА КИРИТИЛИШИНИНГ АСОСИЙ БОСҚИЧЛАРИ	<b>160</b>
<b>41</b>	<b>F.F.Ganjiev</b>	МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK OMILLARINI RIVOJLANTIRUVCHI PSIXOKORREKSION DASTUR SAMARADORLIGI	<b>164</b>
<b>42</b>	<b>F.A.Ismatova, Z.S.Elov</b>	ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI XODIMILARI KASBIY FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	<b>168</b>
<b>43</b>	<b>Д.С.Сайдуллаева</b>	МАМЛАКАТИМИЗДА МИЛЛИЙ ТИББИЁТ ВА ФАРМАЦЕВТИКА ТАЪЛИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ ИНСОН КАМОЛОТИДАГИ АҲАМИЯТИ	<b>173</b>
<b>44</b>	<b>Қ.О.Худойбердиева</b>	ТАЪЛИМГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИНГ ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ	<b>176</b>

**Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари**

---

<b>45</b>	<b><i>Н.Д.Ёқуббоева</i></b>	ТИББИЙ ТАЪЛИМ УЗЛУКСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ СТРАТЕГИЯСИДА КУЗАТИЛАЁТГАН ИСТИҚБОЛЛИ МАСАЛАЛАР	<b>179</b>
<b>46</b>	<b><i>Н.Э.Азимова, Г.Жумаева</i></b>	КАСБИЙ ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШНИНГ ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ВА УЛАРНИ ЎҚУВ- ТАРБИЯВИЙ ЖАРАЁНГА ТАТБИҚ ЭТИШ МУАММОЛАРИ	<b>181</b>
<b>47</b>	<b><i>Z.M.Maxmudova</i></b>	O'SMIRLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	<b>186</b>
<b>48</b>	<b><i>Sh.I.Nurmuradova</i></b>	THE ROLE OF HISTORICAL AND CULTURAL HERITAGE IN EDUCATION OF HIGHLY SPIRITUAL YOUNG PEOPLE IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	<b>190</b>
<b>49</b>	<b><i>Ж.Ж.Рамазонов</i></b>	ШАХСДА ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШИННИГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ	<b>195</b>
<b>50</b>	<b><i>Б.З. Уринова</i></b>	МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ЎЗБЕКИСТОН ДАВРИЙ МАТБУОТИДА ТАРИХИЙ ШАХСЛАР ТАЛҚИНИ (СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР МИСОЛИДА)	<b>200</b>
<b>51</b>	<b><i>Л.П.Мухамеджанова, Н.Н.Содикова</i></b>	БУХОРО МАЪРИФАТПАРVARЛАРИНИНГ ИЛМ- ФАН ТАРАҚҚИЁТИДА ТУТГАН ЎРНИ (XIX аср охри- XX аср бошлари)	<b>209</b>
<b>52</b>	<b><i>Н.С.Абидова</i></b>	ХАВФСИЗЛИК, МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК, ДИНИЙ БАГРИКЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ (тиббиёт институтлари мисолида)	<b>214</b>
<b>53</b>	<b><i>X.X.Raxmatova</i></b>	YOSHLARDA BAG'RIKENGLIK, SHUKRONALIKG'OYALARINI SINGDIRISHDA TASAVVUF ТА'LIMOTINING АНАМІЯТЫ	<b>219</b>

**Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари**

---

<b>54</b>	<b>Д.Т.Исматуллаева</b>	ЁШЛАР ҚАЛБИДА БАҒРИКЕНГЛИК, ШУКРОНАЛИК ТАРБИЯЛАШДА МОБИЛЛИКНИНГ УСУЛЛАРИДАН ИМКОНИЯТЛАРИ	<b>223</b>
<b>55</b>	<b>А.А.Собиров</b>	РОЛЬ ВЕРОТЕРПИМОСТИ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ПРИНЦИПОВ В РАЗВИТИИ НЕЗАВИСИМОГО УЗБЕКИСТАНА	<b>226</b>
<b>4-ШЎЬБА: ХАВФСИЗЛИК, МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК, ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ЁШЛАР ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ, МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ</b>			
<b>56</b>	<b>Х.Х.Жабборов</b>	МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР АСОСИДА ЁШЛАРДА ИЖОБИЙ ФАЗИЛАТЛАРНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ФОЯВИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ	<b>231</b>
<b>57</b>	<b>S.Kenjaev</b>	IMPORTANT ISSUES OF IMPROVING THE IMMUNITY OF SECURITY, INTERNATIONAL HARMONY, RELIGIOUS TOLERANCE IN THE STATE OF AMIR TIMUR	<b>238</b>
<b>58</b>	<b>S.Choriyeva</b>	MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TO'YLARIMIZ BUXORO SHAHRI TAVSIFIDA	<b>241</b>
<b>59</b>	<b>Н.Н.Рахматов</b>	АБУ АЛИ ИБН СИНОНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРИ	<b>244</b>
<b>60</b>	<b>С.Ж.Очилов М.А.Рахмонова</b>	АЛИШЕР НАВОИЙ НУТҚ МАДАНИЯТИ ҲАҚИДА	<b>249</b>
<b>61</b>	<b>М.Д.Пардаева</b>	МАЪНАВИЯТ ЧИРОФИ ҲЕЧ ҚАЧОН ЎЧМАЙДИ!	<b>252</b>

**"ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА МАЪНАВИЙ  
ТАРАҚҚИЁТ АСОСЛАРИНИ  
КУЧАЙТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ  
МАСАЛАЛАРИ"**

мавзуидаги республика илмий-назарий анжумани  
материаллари

*2022 йил 2 декабрь*

**Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари**

---

Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари

---

**Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини  
кучайтиришнинг долзарб масалалари**

---